

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KURBANOVA FERUZA A‘ZAMOVNA

**ISAJON SULTON HIKOYALARIDA FOLKLORIZM VA MIFOPOETIK
TALQIN**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

UO‘K: 821.512.133.09-32

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Kurbanova Feruza A‘zamovna

Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin 3

Kurbanova Feruza Azamovna

Folklorism and mythopoetic interpretation in the stories of Isajon Sultan.....23

Курбанова Феруза Азамовна

Фольклоризм и мифопоетическая интерпретация в рассказах Исаджана
Султана.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....50

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KURBANOVA FERUZA A‘ZAMOVNA

**ISAJON SULTON HIKOYALARIDA FOLKLORIZM VA MIFOPOETIK
TALQIN**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida E2023.J.PhD/Fil 488 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tadqiqot Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.fdu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qobilova Zeboxon Bakirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tojiboyeva Maqaddas Abdurahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Eshonqulov Jabbor Soliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «30» noyabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105. Tel.: (99873) 244-44-29, faks (99873) 244-46-03; e-mail: fardu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (313 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-46-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «16» noyabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «16» noyabr dagi 31 raqamli reestr buyonnomasi).



Sh.M. Iskandarova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., prof.

M.T. Zokirov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filol. f. n., professor

H.A. Jo'rayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b.,
filol. f.d., prof.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish jarayonida yangicha tamoyillar shakllandi. Bu nazariy tamoyillar natijasida xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyotga katta ta‘siri mavjud ekanligi aniqlangan. Yaratilgan badiiy asarlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, aksariyatida folklor an‘analaridan unumli foydalanilganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu jarayon xalq og‘zaki poetik ijodi va yozma adabiyot o‘rtasida ma‘lum bir tamoyillarni yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan ham yozma adabiyot va folklor munosabatlarini yangicha ilmiy asosda o‘rganish hozirgi davr adabiyotshunosligining yetakchi estetik asosini belgilab berishga imkon yaratadi.

Dunyo adabiyotda folklor an‘analarining ma‘lum bir adib ijodida aks etishi masalasiga tadqiqotchilarning qiziqishi ham, e‘tibori ham oshib bormoqda. Buning boisi shundaki, ming yillar mobaynida shakllangan qadriyatlar, ma‘naviy boylar hamisha jamiyat taraqqiyotiga, insonning ruhiy poklanishiga xizmat qilib kelgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlardan ma‘lumki, ijodkorlar badiiy idrok etilgan voqelikni tasvirlash usulida folklor unsurlaridan samarali foydalanmoqda. Folklorizmlar badiiy mukammal asarlar yaratishda, chinakam adabiyot maydonga kelishida ham asosiy o‘rinni egallaydi. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma‘naviyati ko‘zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish kerak”¹. O‘zligini anglagan har qanday xalq milliy ma‘naviy sarchashmalarini ko‘z qorachig‘iday asraydi, uni keyingi avlodga meros qilib qoldiradi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton ijodida milliy ma‘naviy merosimizni aks ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli syujetlar tanlash adibning uslubiy o‘ziga xosliklarini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan Isajon Sulton hikoyalaridagi folklorizmlar, ularning mifopoetik funksiyasini tadqiq qilish va tasvirlash mahoratini o‘rganish tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son qarori, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga

¹ Мирзиёев Ш. Адилбар хиёбонига ташрифи чоғида сўзлаган нутқи. /Халқ сўзи. – Тошкент, 2020, 21-май, №106 (7608).

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotshunosligida folklorizm va mifologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy ijodda folklordan ta'sirlanish va ijodiy foydalanishdagi mahorat, folklorning yangi oraliq shakllarning yaratilishiga ta'siri, badiiy asar syujetining folkloriy asoslari, badiiy asarning mifopoetik talqini borasida olib borilgan tadqiqotlar mavjud.

Platon², Aristotel³ kabi allomalar ishlarida mif haqida dastlabki tushunchalar o'rganilgan. V.Basilov, V.Propp, A.Dimshis, Y.G.Xazankovich, D.N.Medrish, V.E.Gusev, M.K.Azadovskiy, V.B.Agrba, Y.G.Pozdnyakova, G.A.Levinton, A.A.Gorelov kabi olimlar tadqiqotlarida yozma adabiyot va folklorning o'zaro aloqadorligi, folklorizmlarning tabiati, tipologiyasi, metodologik va nazariy asoslari tadqiq etilgan⁴.

O'zbek adabiyotshunosligida xalq og'zaki ijodi an'alarining yozuvchi va shoirlar ijodiga ta'siri masalasi har doim diqqat markazida bo'lgan.⁵ Olimlardan

² Платон. Соб. соч. в 3-х тт. Т.3 (1). М., 1971г.

³ Аристотель. Поэтика / Пер. М. Л. Гаспарова. — Аристотель. Сочинения: В 4-х т. — М.: Мысль, 1983.

⁴ Басилов В.И. Миф народов мира, Т.2. —М. 1992; Пропп В. Я. Фольклор и действительность. 1976; А.Димшис. Литература и фольклор Св. Статей, М. 1938; Хазанкович Ю.Г.Фольклорно-эпические традиции в прозе малочисленных народов России. Автореф.дис...докт.филол.наук. — Москва, 2009; Медриш Д.Н. Литература и фольклорная традиция. Вопросы поэтики. — Саратов: Издательство Саратовского университета, 1980. 175с; Гусев В.Е. Типология фольклоризма. — Кичкемет (Венгрия), 1985; Азадовский М.К. Стати о литературе и фольклоре. М. Л. 1960; Агрба В.Б. Абхазская поэзия и русское народное творчество. Тбилиси.1970; Позднякова Е.Г. Фольклоризм прозы Н.М. Карамзина. автореф. дис. насоиск. учён. степ. канд. филол. наук. — Челябинск, 2003; Левинтон Г.А.Заметки о фольклоризме Блока //Миф-фольклор — Литература — Л.: Наука,1978; Горелов А.А. К истолкованию понятия «фольклоризм литературы»//Русский фольклор. — Л.:Наука,1979.

⁵ Маллаев Н. Навоий ижодиётининг халқчил негизи.— Тошкент: Фан, 1973.; О'sha muallif: Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. Гафур Гулом НМИУ, — Тошкент: 2015; Жалолов Ф. Ҳамза поэзияси ва халқ оғзаки ижоди. — Тошкент: Фан, 1975. — 56 б.; Носиров О., Собиров О. Халқ ижоди хазинаси. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. — 138 б.; Собиров О. Ойбек ижодида фольклор. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. — 104 б.; Shu muallif. Сарчашма адиб ижодида. — Тошкент: Фан, 1975. — 68 б.; Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Фил.ф.д.дисс... автореф. — Тошкент, 1994; Сафаров О. Фольклор ва болалар адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. — № 6. — Б. 20-26.; Амилова М. Ўзбек совет адабиётида фольклор аънаналари. — Тошкент: Фан, 1990. — 124 б.; Ярмагов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е и начало 80-х годов): Автореф.дисс...канд.филол.наук. — Ташкент, 1985; Абдулхамидов А. Фольклор ва миллий роман/Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари адабиётидаги роман жанрини типологик ўрганиш. — Тошкент: Фан, 1991. 30-49б, Имомкаримова М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий кадриятлар.Фил.ф.д.дисс...Тошкент,2004;Шарипова Л.ХХ асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърларида фольклоризмлар. Фил.ф.н.дисс... — Тошкент, 2008; Сулаймонов Ш.Ўзбек дедиктив насрида фольклор аънаналари роли. Фил.ф.н.дисс... автореф. Тошкент, 2002; Хўжаев Т. XV аср биринчи

B.Sarimsoqov va I.Yormatovlarning tadqiqotlarida folklorizmlarning nazariy asoslari va tipologiyasi haqida muhim ma'lumotlar berilgan⁶. Ayrim tadqiqotlarda xalq og'zaki poetik ijodi va yozma adabiyot masalasiga sho'ro adabiyoti nuqtayi nazaridan yondashilganini kuzatish mumkin⁷.

Taniqli folklorshunoslar M.Jo'rayev, J.Eshonqul, Sh.Turdimov kabi olimlar tadqiqotlarida ham bu masalaga e'tibor qaratilgan⁸.

Ba'zi tadqiqotlarda XX asrga kelib badiiy asarlarda mifga murojaat qilish, ularning o'ziga xos obyektiv sabablari sanab o'tilgan⁹.

Isajon Sulton asarlarida folklor unsurlaridan foydalanish, folklorga oid vositalarning poetik funksiyalari N.Tosheva, N.Sultonovalar tadqiqotlari¹⁰da

ярми ўзбек адабиёти ва фольклор. Фил.ф.н.дисс...автореф. – Тошкент, 1994; Мирзаева С.Ўзбек реалистик адабиётида фольклор анъаналари. – Тошкент: Истиқлол.2005; Абдурахмонов Т.Ўзбек драматургиясининг шаклланиши ва тараққиётида фольклорнинг ўрни. Фил.ф.н. дисс... автореф. – Тошкент, 1994; Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси:Фил.ф.д.дисс...Тошкент,2012;Нарзикулова М. "Сабаъи сайёр" достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талқини: Фил.ф.н дисс...автореф. – Тошкент, 2006; Эшонкулова С. Нодира шеърятда Хизр образининг бадий талқини // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009.№6; Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.

⁶ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти.1980.№4.37-45; Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари //Ўзбек тили ва адабиёти.1982.№2.55-58-б;Ўша муаллиф: Стилизация характеридаги фольклоризмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1984.№3.31-35 б; О'sha muallif. Ҳозирги ўзбек лирикасидаги синтезлашган фольклоризмлар хусусида//Ўзбек тили ва адабиёти.1985.№2.35-39-б; О'sha muallif. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е – начало 80-х годов):Автореф.дисс...канд .филол.наук. – Ташкент, 1985.

⁷ Каримов Н. Ҳамид Олимжон поэзиясида фольклор традициялари //Ўзбек совет адабиёти масалалари. -Тошкент: Фан, 1959; Мўминов Ғ. Ҳамза ва халқ оғзаки ижоди /Ҳамза ҳақида мақолалар. - Тошкент: Ўздаврнашр,1960; Собиров О. Ўзбек реалистик прозаси ва фольклор. – Тошкент: Фан, 1979.; Ойбек ижодида фольклор.Тошкент:Адабиёт ва санъат,1975; О'sha muallif. Фольклор анъаналари ҳақида мулоҳазалар//Ўзбек тили ва адбиёти.1968.№6.24-27-б;Ўша муаллиф.Ўзбек совет адабиётида фольклор ва фольклор анъаналари//Ўзбек совет фольклори масалалари.1-китоб. Тошкент, 1970.125-143-б.; Омилова М.Асқад Мухторнинг “Чинор” романи ва фольклор//Ўзбек тили ва адабиёти.1974.№2.7-12-б; Асқаров С. Қодирий ижодида фольклорнинг баъзи масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти.1973.№1.19—22-б;Сафаров О.Қуддус Муҳаммадийнинг фольклордан фойдаланишига доир//Ўзбек совет фольклори масалалари.1-китоб. –Тошкент, 1979.207-212-б; Абдиқулов Т. Болалар поэмачилиги ва халқ оғзаки ижоди//Ўзбек тили ва адабиёти.1975.№5.29-34-б; Носиров О.,Собиров О. Халқ ижоди хазинаси. –Тошкент: Адабиёт ва санъат,1986; Жалолов Ғ. Ҳамза драматургияси ва фольклор.Тошкент: Фан,1988; Амилова М.Ўзбек совет адабиётида фольклор анъаналари. – Тошкент: Фан,1990.

⁸ Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент, 2008; Эшонкул Ж. Фольклор. Образ ва талқин. –Қарши: Насаф,1999; О'sha muallif. Миф ва бадий талқин. –Тошкент: Фан, 2019; Турдимов Ш. Этнос ва эпос. –Тошкент: O'zbekiston, 2012 .

⁹ Миф и художественного сознание XX века. М., Государственный институт искусствознания. Канон-Плюс, 2011; Нурғали Сыздыкбаев. Мифопоэтика рассказа «Ажр» Назара Эшанкулова. «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. – Ташкент: «Mashhur-press», 2018; Йўлдошев Қ. Модернизм: илдиз, моҳият ва белгилар//“Ёшлик”, 2014. 9-сон; М.Холбеков. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент, 2013.

¹⁰ Тошева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид унсурларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида). Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.–Тошкент, 2020; Султонова Н. Исажон Султон романларида бадий компонентлар модификацияси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. –Қарши, 2020.

qisman o'rganilgan. Ammo yozuvchi hikoyalarida folklorizmlar muammosi, hikoyalarining mifopoetik talqini alohida monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika instituti rejasining "Hozirgi adabiy jarayon muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Isajon Sulton hikoyalaridagi folklorizmlarning asar badiiyatidagi o'rni, poetik vazifalari, folklor elementlaridan foydalanishda yozuvchi mahorati va mifopoetik talqin imkoniyatlarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal qilindi:

jahon adabiyotshunosligidagi folklor va yozma adabiyot munosabatlariga oid tadqiqotlar o'rganildi;

folklorizmlar va mifologizmlarning zamonaviy o'zbek adabiyotdagi o'rni masalasi aniq bir ijodkor misolida tadqiq etildi;

Isajon Sulton hikoyalaridagi mifologemalarning o'ziga xos talqini tahlil qilindi;

hikoyalar syujetida folklor an'analari va mifologizmlarning o'rni va poetik funksiyasi aniqlandi;

hikoya ta'sirchanligini oshirishda mifologik obrazlar va motivlarning ahamiyati to'g'risidagi ilmiy qarashlar asoslandi;

folklorizm va mifologizmlarning yozuvchi ijodiy laboratoriyasidagi stilizatsiyasi masalasi ochib berildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida yozuvchi Isajon Sultonning "Ozod" (2012), "Bog'i Eram" (2015), Asarlar. (Hikoyalar. II jild, 2017), "Hazrati Xizr izidan" (2018) to'plamlariga kiritilgan hikoyalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti. Isajon Sulton ijodidagi folklorga xos xususiyatlar, ular asosida obraz yaratish mahoratini belgilash tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, lingvopoetik, biografik, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

yo'zuvchi Isajon Sulton badiiy uslubining o'ziga xosligi asar qahramonlari nutqida duo, olqish, qarg'ish kabi folklorizmlarni qo'llashda, maqol va matallar, turg'un iboralar kabi oddiy; analitik, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi murakkab folklorizmlardan foydalanishda ko'rinishi asoslangan;

Isajon Sulton hikoyalarida avliyo, xazinabon, dev, pari, jin kabi mifopoetik obrazlar; qo'riqchi, baliq, oq ilon singari ramzlar; Eram bog'i, Tilsim tog'i, daryo, choyxona kabi makon tasviri va ulardan yozuvchining qahramon xarakterini yoritishda, xalqning milliy ruhini aks ettirishda foydalanish mahorati ochib berilgan;

Isajon Sultonning "Qo'riqchi", "Manzil", "Xazinabon", "Shamolli kecha", "Avliyo", "Otamga nimadir bo'ldi", "Turmush", "Qismat" kabi hikoyalarida safar, sinov, xotirlash, ziyorat, tush, o'gay ona, o'zga olam motivlari nafaqat syujet tizimi rivojini ta'minlovchi vosita, balki asar g'oyasini ifodalashga xizmat qiluvchi poetik vazifa bajargani dalillangan.

yozuvchining hikoyalarida ertak, rivoyat, naql, afsona, doston kabi janrlarga xos motiv va syujetlar stilizatsiyasi, polbos, katoblepas singari mifologik obrazlar transformatsiyasi, shuningdek, diniy-e'tiqodiy qarashlarning ifodalanishi mifologizmlarda yaqqol namoyon bo'lgani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

zamonaviy hikoyachilik va folklor munosabatlarining mushtarakligi aniqlangan. Bu ikki tushuncha bir-birini to'ldirib turadigan adabiy hodisa ekanligi qayd etilgan;

Isajon Sulton hikoyalarida qo'llanilgan folklor unsurlari va ularning poetik vazifasi ba'zi asarlar bilan qiyoslanib ilmiy-nazariy umumlashma xulosalar chiqarildi;

Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifologizmlar asar kompozitsiyasida muhim o'rin tutishi, ularning turlicha poetik vazifa bajarishi, asar badiiyatidagi o'rni ko'rsatilgan;

yozuvchi hikoyalarida mif mohiyatan o'zining sakral vazifasini kengaytirib mifopoetik vazifani ado eta boshlagani, shaklan hikoya syujeti tarkibida kichik unsur – motiv, ba'zan obrazlashgan holda tasvirlansa-da, asar syujetidagi birlamchi mazmun doirasida bo'lmasdan, ikkilamchi mazmun doirasiga ko'chishi aniqlangan;

adib ijodidagi mifologiyaga xos xususiyatlarning hikoya poetikasi rivojiga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq ilmiy xulosalar adabiyotshunoslik, o'zbek adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon kabi fanlardan darslik va qo'llanmalarining yaratilishiga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning analitik, tasniflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil kabi usullar bilan asoslanganida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning asosiy xulosalari zamonaviy hikoya badiiyatini o'rganishda, badiiy-kompozitsion xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishda o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning amaliy natijalari "Folklorshunoslik", "O'zbek adabiyoti", "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi", "Hozirgi adabiy jarayon" fanlari bo'yicha talabalarga dars mashg'ulotlari olib borishda, amaliy mashg'ulot va seminarlar o'tishda, tanlov fanlarini tashkil etishda, shuningdek, mazkur fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalar, darslik, majmualar, atamalar lug'atini yaratishda, ommaviy axborot vositalarida o'zbek folklori va o'zbek hikoyachiligi bo'yicha ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yozuvchi Isajon Sulton badiiy uslubining o'ziga xosligi asar qahramonlari nutqida duo, olqish, qarg'ish kabi folklorizmlarni qo'llashda, maqol va matallar, turg'un iboralar kabi oddiy; analitik, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi murakkab folklorizmlardan foydalanishda ko'rinishi asoslangani bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi nasr bo'limi yig'inlarida yosh ijodkorlarga o'tilgan mahorat darslarida, shuningdek, ijodiy seminarlarda o'qilgan ma'ruzalarda foydalanilgan. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023- yil 25 iyuldagi 01-03/888-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh qalamkashlarning folklor va yozma adabiyot

haqidagi bilimlari kengaygan, Isajon Sulton ijodiy loyihalarida xususidagi bilimlari oshgan, seminarlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan;

Isajon Sulton hikoyalarida avliyo, xazinabon, dev, pari, jin kabi mifopoetik obrazlar; qo'riqchi, baliq, oq ilon singari ramzlar; Eram bog'i, Tilsim tog'i, daryo, choyxona kabi makon tasviri va ulardan yozuvchining qahramon xarakterini yoritishda, xalqning milliy ruhini aks ettirishda foydalanish mahorati ochib berilganiga doir ilmiy qarashlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali "Bedorlik", "Adabiy jarayon", nomli eshittirishlari (2019-2022-yillar) ssenariysida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2023- yil 24- iyuldagi 04-36-1127-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlar ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi oshgan;

Isajon Sultonning "Qo'riqchi", "Manzil", "Xazinabon", "Shamolli kecha", "Avliyo", "Otamga nimadir bo'ldi", "Turmush", "Qismat" kabi hikoyalarida safar, sinov, xotirlash, ziyorat, tush, o'gay ona, o'zga olam motivlari nafaqat syujet tizimi rivojini ta'minlovchi vosita, balki asar g'oyasini ifodalashga xizmat qiluvchi poetik vazifa bajargani dalillangani bilan bog'liq xulosalardan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish" mavzusidagi loyihada foydalanilgan. (Qo'qon DPIning 2023 yil 24 iyuldagi 20-son ma'lumotnomasi). Natijada, platforma yangi va qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitilib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratilgan;

yozuvchining hikoyalarida ertak, rivoyat, naql, afsona, doston kabi janrlarga xos motiv va syujetlar stilizatsiyasi, polbos, katoblepas singari mifologik obrazlar transformatsiyasi, shuningdek, diniy-e'tiqodiy qarashlarning ifodalanishi mifologizmlarda yaqqol namoyon bo'lgani asoslangani haqidagi xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 24-iyuldagi 309-son ma'lumotnomasi). Natijada, targ'ibot anjumanlarining ilmiy-ma'rifiy jihatdan o'ziga xosligi ortishiga, badiiy adabiyotning tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyatini ochib berishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Folklor va yozma adabiyot munosabati masalalari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat bo‘lib, birinchi faslda **“Folklor va yozma adabiyot munosabatlarining o‘rganilishi”** ga diqqat qaratilgan.

Adabiyotning beshigi bo‘lgan folklor asrdan asrga hayotiy vazifasini kengaytirib bordi, individual ijodda o‘ziga xos poetik vazifalarni ham bajara boshladi. O‘zbek folklorshunosligida folklor va yozma adabiyotning folklorizm asosidagi aloqasini tadqiq etish dastlab B.Sarimsoqov tomonidan boshlab berildi. Olim folklorizmlarni oddiy va murakkab turlarga ajratdi¹¹. Folklorizmlarning asar matnida bajaradigan badiiy vazifalari va talqinlariga doir B.Sarimsoqov ilgari surgan nazariy konsepsiya keyinchalik O.Nosirov, O.Sobirov, M.Hakimov, B.To‘xliyev, I.Yormatov, L.Sharipova, G.A.Begmuratova, N.Tursunovalarning ilmiy maqolalari va dissertatsiya ishlarida¹² yanada rivojlantirildi. Folklorizmlarning Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodidagi poetik talqinlarini o‘rgangan S.Hamdamova yozma badiiy asarlar tarkibida keluvchi xalq og‘zaki ijodi namunalarini manbalari va badiiy-estetik vazifasiga ko‘ra “mifologizm” (qadimgi mifologik tasavvurlar va mifik obrazlar, asotiriy syujet va motivlarning badiiy asar matnidagi talqini), “folklorizm” (badiiy adabiyotda poetik vosita sifatida qo‘llanilgan folklor elementlari) va “adabiy etnografizm” (urf-odat, marosim, rasm-rusum, xalq qarashlari va an‘analarining yozma adabiyotdagi ifodasi) deb baholashni maqsadga muvofiq¹³ deb bildi. Tadqiqotchi N.Toshevaning dissertatsiyasida¹⁴ Isajon Sultonning “Ozod”, “Genetik” romanlaridagi folklorga oid unsurlarning o‘rni kuzatilgan.

Bobning ikkinchi fasli **“Mifologizmlar va hozirgi zamon o‘zbek hikoyachiligi”** deb nomlanadi. Zamonaviy hikoyalardagi miflarga murojaat qilish, mifologik tasavvurlardan borliqning yangicha tasvirini yaratishda foydalanish orqali

¹¹ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек фольклоршунослиги. Антология. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – Б.346-358.

¹² Носиров О., Собиров О. Халқ ижоди хазинаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986; Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Фан, 1979; Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Кутадғу билиг” асари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991; Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1982. – 2-сон. – Б.54-59; Шу муаллиф. Типология фольклоризмов в советской узбекской литературе (60-е и начало 80-х годов). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1985; Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърятда фольклоризмлар. Фил. ф. н. дисс... автореф. – Тошкент, 2008; Бегмуратова Г.А. Мустақиллик даври қорақалпоқ романларида фольклоризмлар: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Нукус, 2019. – 54 б. Турсунова Н.Х. Ҳозирги ўзбек драматургиясида фольклор стилизацияси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 62 б.

¹³ Ҳамдамова С. Фольклор аънаналари ва бадий талқин: таъсир ҳамда акс таъсир масалалари. Фил.ф.н.дисс... автореф. – Тошкент, 2012.– б.27.

¹⁴Тосшева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид унсурларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020.

miflarning asl mohiyati to‘laqonli o‘z vazifasini bajarmasdan endi mif unsurlari mifologema sifatida maydonga kelishi kuzatiladi. U asar syujetining shakllanishi, voqealar rivoji, asar qahramonlarining portreti yoki xarakterini ochib berish uchun xizmat qiladigan muhim poetik vositaga aylanadi. Folklorshunos J.Eshonqulovning “Mif va badiiy tafakkur”¹⁵ monografiyasida mif va uning hozirgi zamon jahon nasri poetikasidagi vazifalari borasida yangi mulohazalar bildirildi. Olimning “Mifologiyaning o‘ziga xos falsafa ekanini tushunmasdan turib, undagi ramzlarning ma’no va mohiyatini ochib bermasdan turib biz na adabiyot, na san’at eshigiga kira olamiz. Biz bugun klassik adabiyotimizni hamda dunyo adabiyotini tushunishimiz uchun eng avvalo ana shu qatlamni o‘rganishimiz zarur bo‘ladi”,¹⁶ degan fikriga to‘la qo‘shilamiz. M.Otajonovanning tadqiqotlarida ham mifologizmlar va badiiy mahorat qirralari tahlil qilingan¹⁷. Adabiyotshunos D.Quronov “O‘tkan kunlar” romanining mifopoetik talqiniga bag‘ishlangan maqolasida birinchilardan bo‘lib mifopoetik tahlil va badiiy asarga mifopoetik yondashuv masalasiga e’tibor qaratadi¹⁸. B.Jovliyev esa mifik ijod bilan mifologik poetikaning farqini belgilar ekan: “ajdodlarimizning mifologik ijodi bu – stixiyali, anglanmagan emotsional-hissiy ijod jarayoni edi. Yozma adabiyotdagi mifologizm esa ijodkor tomonidan anglangan, ongli ravishda qo‘llangan uslubdirki, bu holat yozma adabiyot mifopoetikasini dastlabki jamoa bo‘lib yaratilgan mifologik ijod jarayonidan ajratib turadi” degan qarashni ilgari suradi¹⁹.

Adabiyotshunoslikda mifologema atamasi, badiiy matndagi vazifalari kabi qator filologik masalalar borasida qiziqarli mulohazalar bayon qilingan.²⁰

Isajon Sulton hikoyalarida mifologemalar obrazlar, ramz-timsol va makon tasvirida bo‘y ko‘rsatadi. Yozuvchining “Xazinabon” nomli hikoyasi inson tafakkuri imkoniyatlari doirasidan tashqarida, ya’ni G‘aybda sodir bo‘ladigan voqelikka murojaat qilish, arxaik tafakkur qoldiqlarining hozirgi zamon kishisi ongida qayta jonlanayotgani, ajdodlarimizning sirli olam haqidagi qarashlarining yangi avlod shuurida yangicha bo‘y ko‘rsatishini badiiy ifodalashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoyada Xizr obrazi qayta jonlantirilgan. Tasvirlangan voqealar fonida inson taqdiri mifologemasi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Islomiy dunyoqarashda Xizr alohida o‘rin egallaydi. O‘rta Osiyoga islom dini yoyilishi bilan islomiy e’tiqod va dunyoqarash bilan birga arab mifologiyasi

¹⁵ Эшонқулов Ж. Миф ва бадий тафаккур. - Тошкент: Фан, 2019.

¹⁶ O‘sha asar. -Б. 20 -21.

¹⁷ Отажонова М. Мифологизм ва бадий маҳорат. - Тошкент: FIRDAVS-SHOH, 2022.

¹⁸ Қуронов Д. “Ўтган кунлар”: мифопоэтик таҳлил тажрибаси.<https://quronov.uz>.

¹⁹ Жовлиев. Б Бадий асарда мифопоэтик талқин ва бадий образ. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)дисс...автреф. – Тошкент, 2023.

²⁰ Семенихина М.В. Мифологема как понятие и термин: к вопросу об определении // Перевод. Язык. Культура: материалы VI Междунар. науч.-практ. конф. СПб., 2015. - С. 180-184; Дмитриенко М.В. Мифологема «поэт» и ее концептуальные модели в русском поэтическом дискурсе XIX – XX вв. // Вестник ЧелГУ. 2009. № 27 (165). - С. 29-33; Кобылко Н.А. Мифологема как ключевое понятие мифокритики: современные подходы // Современная филология: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Уфа, июнь 2014 г.). Уфа: ЛЕТО, 2014. - С. 4-6; Коновалова Н.И. Мифологема как свернутый сакральный текст // Политическая лингвистика. 2013. № 4. - С. 209-215; Левитская Н.А., Ломакина О.В. Анализ мифологем и концептов как путь к пониманию литературного произведения // Жанрологический сборник. Вып. 1. Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2004. -С. 62-66.

ham xalq orasida keng tarqaldi. Shunday obrazlardan biri Xizr obrazidir. Xizr obrazi qiyinchilik damlarda madadga keluvchi, g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan homiy sifatida talqin qilingan. Xalq tasavvurlariga ko‘ra, Xizr doimiy oppoq soqolli, oq kiyim va oq sallali nuroniy qiyofasida yuradi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul yashil rang arablarda muqaddas sanalishini ta’kidlab, Xizr obrazini yashil rang bilan bog‘laydi²¹. Xizr odamlarga turli qiyofa va shakllarda ko‘rinishi mumkin: mo‘ysafid chol, gadoy, ilon, qush, hayvon v.h.k.²² Hikoyada epik qahramon hazrati Xizrni izlab yo‘lga otlanadi. Adibning kechinmalari va xayollari tasviri bo‘yi basti bilan mifologik tasavvurlar mazmuni bilan sug‘orilgan: “Hech qayerda izlaganimni topmadim. Afrosiyob shamollari, Nurota izg‘irinlari, Samarqand-u Buxoroning yetti avliyosi dahmalari-yu noma’lum toshlari... birontasi menga o‘z sirini ochmadi²³. Rovi manzillardan birida so‘nik xazinabonni ko‘radi, sal narida esa sonsiz-sanoqsiz insonlarning tarixlarini o‘z ichida saqlagan toshlarga ro‘baro‘ bo‘ladi. Adibning dunyoning sirlarini toshlardan anglamoqchi bo‘lishi, xazinabonning toshga evrilishi bilan bog‘liq mifik qarashlardan xabardorligi, xazinabonning mangu nur taratishi – mifologik timsolning mohiyatini teran anglaganligi kechinmalari talqinida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asarda voqealarni hikoya qiluvchi muallif chuqur o‘yga toladi. U o‘zi va zamondoshlarining avom ekanligini anglaydi: “O‘ziga berilgan mo‘jizalardan hech qachon qoniqmaydigan, yana va yana qo‘lini cho‘zib betinim va betinim so‘rashni, tilanishni yaxshi ko‘radigan avom zotan suv ustida suzmoqda, bo‘ladigan voqea-hodisalarni oldindan bilmoqda, xastaliklardan davo topmoqda, ko‘r-ko‘rona timirskilanib hayoti dunyodan yashab o‘tmoqda!”²⁴. Hikoyada mifologema zamonaviy odamlarning xarakterini ochishga xizmat qildirilgan. Adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonov ta’biri bilan aytganda: “Inson va tabiat birligini o‘zaro qorishiq tarzda tasvirlash orqali Isajon Sulton badiiy adabiyotimizga o‘zining shaxsiy tashvishlaridan ko‘ra ko‘proq umumbashariy masalalar bilan band bo‘lgan yangicha tafakkurdagi shaxs obrazini olib kirdi”²⁵.

Yozuvchi hikoyalarida mifologemalar mifologik obraz (tilanchi, Xizr atributi, Avliyo ota), mifologik motiv (avliyoning karomatlari: otining tuyog‘i tekkan joyning yashnab ketishi, ilonlarni o‘ziga bo‘ysundirishi) ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bob “Isajon Sulton hikoyalarida folklor an‘analarining o‘rni” deb nomlangan. Birinchi fasl **“Folklor an‘analari va ijodkor uslubi”** ga bag‘ishlangan. Avvalo ta’kidlash kerakki, xalqona tasvirlash mahorati zaminida xalq ijodini puxta o‘rganish yotadi. Ma’lumki, ijodkor uslubining shakllanishida tug‘ilib o‘sgan makon, xalqning urf-odatlarini, oiladagi hayot tarzi, ustozlarning alohida o‘rni bor. “Uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu

²¹ Хаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Тафақкур томчилари, 2021. -Б. 224.

²² Турдимов Ш. Гўрўғли туркумида Хизр образи // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. – Тошкент: - Б. 53- 58.

²³ Исажон Султон. Хазиначон / Асарлар. Ҳикоялар. I жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. -Б.258.

²⁴ О‘sha asar. –Б. 258.

²⁵ Солижонов Й. Нияти кутлуғ адиб / Исажон Султон насри бадияти. - Тошкент: Турон замин зиyo, 2017. –Б.55.

vazifalarni individual tarzda yaratish san'atidir.”²⁶ Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi va uslubidagi xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o'xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o'y-xayollari o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Masalan, “Avazboylik tantilar”, “Bibi Salima”, “Shamolli kecha”, “Bog'i Eram”, “Manzil”, “Qish ertaklari”, “Ona-yurt sog'inchi” kabi qator hikoyalarida bu badiiy xususiyatlar yarqirab ko'rinish bergan deyish mumkin. Yozuvchi oddiy va murakkab folklorizmlardan o'rinli foydalangan. Murakkab folklorizmlarning asosan ikki turi - analitik va sintezlashgan folklorizmlar ko'proq uchraydi.

Yozuvchi hikoyalarini folklorizmlar qo'llanganligi nuqtayi nazaridan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Oddiy folklorizmlar qo'llangan hikoyalar	Murakkab folklorizmlar	
	Analitik folklorizmlar qo'llangan hikoyalar	Sintezlashgan folklorizmlar qo'llangan hikoyalar
“XXI asrning sakkiz yashar bolasi”, “Qo'riqchi”, “Ozor”, “Turmush”,	“Manzil”, “Qismat”, “Xazinabon”, “Do'st”, “Kichkina pushtirang mahluqcha”, “Xun”, “Tuman”, “Orif”, “Bog'i Eram”, O'rmondagi kulba”, “Oydinbuloq”, “Shamolli kecha”, “Toshkelinchak”, “Yusuf va Zulayho”, “Oftob chiqdi olamga”	“Tilsim lashkari”, “Avliyo”, “Otamga nimadir bo'ldi”, “Qoraqush yulduzining siri”, “Og'riq tog'i”, “Bibi Salima”, “Avazboylik tantilar”, “Mega intellekt”, “Sog'inch”, “Uzuk”, “Ismsiz qahramon”

Ijodkor mahorati folklorizmlarni asar syujetida ochiq va yopiq holda qo'llashda ham ko'rinadi. “Bibi Salima” hikoyasida Bibi Salimaning tong sahar turib eshiklarni ochib qo'yishi, uyga baraka kirishi bilan bog'liq motiv qahramonning xatti-harakatlari zamiriga singdirilgan yopiq holda yashirin ifoda etilgan etnofolklorizmdir. Personajlar nutqidagi duo va olqishlarning o'rni-o'rni bilan keltirilishi ochiq qo'llanishiga misol bo'la oladi.

Professor B.Sarimsoqov badiiylikning mohiyati va asoslari haqida fikr yuritib, badiiy obraz xususida shunday ta'kidlaydi: “Real voqelik faktlari faqatgina o'ziga xos belgi-xususiyatlari bilan emas, balki ijodkorning estetik idealiga xos atributlar bilan boyitilgan, muayyan darajada o'zgartirilgan, qaytadan idrok etilgan holda aks etgandagina badiiy obraz vujudga keladi”²⁷. “Bibi Salima” hikoyasida obraz-timsol-qahramon talqini ko'zga tashlanadi. Bu hikoya va uni quvvatlaydigan, jonlantiradigan atribut bu tandir. Yozuvchi tomonidan mazkur detal juda o'rinli qo'llanilgan va o'ziga xos topilma hamdir. Asar avvalidan somonsuvoqli ayvonli

²⁶ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. - Тошкент: Шарк, 2002. -Б. 236.

²⁷ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент: Bookmany print, 2022.– Б.64.

imorat, sinchdan ko‘tarilgan bitmagan imorat, tandır yonidagi loyo‘choq, suvpaqir, tandırqopqoq, qozon damtovog‘i kabilarning tasviri o‘zbekona hayot tarzi haqida xabar beradi.

Isajon Sulton hikoyalari folklorning eng qadimiy va boy janrlaridan biri - qo‘shiqlardan ham samarali foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. L.Sharipova folklorga mansub satr yoki bir band she‘r yozma she‘r tarkibida aynan keltirilsa, analitik folklorizm sanalishini ta‘kidlagan bo‘lsa, Z.Eshanova shunday yozadi: “Xalq og‘zaki ijodidagi xalq qo‘shiqlari, mif, afsona, rivoyat, ertak kabi janrlarga oid biror satr yoki bir band she‘r yozma she‘r tarkibida muallif tomonidan aynan keltirilishi (g‘oyaviy maqsadni yuzaga chiqarish uchun) analitik folklorizmdir”²⁸.

Isajon Sultonning analitik folklorizmlardan ijodiy foydalanilgan hikoyalardan biri “Qo‘riqchi” hikoyasidir. Adib qo‘riqchi nigohi bilan vaqtning bir bo‘lagini qirqib olgan va unda qo‘riqchi, ilon, qushlar, karvon, daryoning baliqlari tilidan bir bek yigit va bir oy qizning o‘zaro ko‘ngil qo‘ygani, keyinchalik oila qurgani, turmush mashaqqati-yu tashvishlaridan, xash-pash deguncha o‘tib ketayotgan umrdan hikoya qiladi. Bu hikoyalar bir oila misolida butun insoniyatning kechasi, buguni va kelajagidan so‘ylaydi. Hikoyaning erta bahor tasviri bilan boshlanib, kech kuz manzarasi bilan yakun topishi umrning ramziy ifodasidir. Hikoyadagi daryo - hayot, ayni vaqtda o‘tib borayotgan vaqt, hijron; baliq – g‘am, g‘ussa; ilon – aql; karvon – umr; yo‘lchivin – umri besamar kechgan odam; jayron – umid mazmunini anglatuvchi ramzlardir. Hikoyadan o‘rin olgan xalq qo‘shiqlari kechinma, holatni aks ettiradi. Mayda-mayda sabablar, tashvish-u g‘amlar – ulkan baliqlarga aylandi, endi ular odam bolasini yutar darajaga yetmasa bo‘ldi! Qo‘riqchining xavotiri shundan. Ayol tilidan aytilgan so‘nggi qo‘shiq xalq qo‘shiqlari tasnifiga ko‘ra murojaat qo‘shiqlari turkumiga kiradi. Kishi ko‘nglida kechayotgan, ayniqsa, odam xayoliga keltirishga o‘zi ham qo‘rqib, ko‘ngil tubiga cho‘ktirilgan o‘y-tuyg‘ular qo‘shiq bo‘lib kuylanadi. Qo‘shiq kishiga sirdosh, mungdosh bo‘ladi. Bunday holatlarda ramziy obraz ifodaning eng maqbul shakli hisoblanadi. Insoniy munosabat fasllari ham turli davriy halqalarda kechadi. Yoz qishga do‘nganidek, otashin sevgi qahrli nafratga aylanishi mumkin. Bu yerda ko‘z yoshi ayrilish ma‘nosini ifoda etuvchi va jazolovchi magik unsurga aylanadi. Lirik qahramon muhabbatining qadriga yetmagan oshig‘ini endi azoblanishini istaydi:

Oh urarman, oh urarman, ohlarim tutsin seni,
Ko‘z yoshim daryo bo‘lib, baliqlari yutsin seni.....²⁹

Folkloshunos Sh.Turdimov o‘zbek xalq qo‘shiqlari tarkibida keluvchi daryo obrazini o‘rganar ekan, mazmun mundarijasiga ko‘ra 5 guruhga bo‘ladi³⁰. “Qo‘riqchi” hikoyasidagi xalq qo‘shig‘i tarkibida kelgan daryo ko‘z yoshining

²⁸ Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърининг бадиий таракқиётида фольклор. Фил.ф.д. (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 19; Eshanova Z. Analitik folklorizmlarning g‘oyaviy-estetik vazifalari /Turkiy xalqlar adabiyoti: adabiy aloqlar, adabiy ta’sir va tarjima” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Boku, 2022. –B.70.

²⁹Исажон Султон. Қўриқчи // Асарлар. Ҳикоялар. 1- жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –Б. 211.

³⁰ Қаранг: Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 111 -113.

analogi sifatida namoyon bo‘ladi va ayriliq, hijronning haddan oshganini, qahramon kuchli ruhiy jarayonni boshdan kechirayotganini bildiradi.

“Toshkelinchak” hikoyasi syujetining muhabbat mojarosi zamiriga qurilishi, qahramonning o‘z muhabbati yo‘lidagi intilishlari asosida voqealar rivojini ta’minlash sof xalq eposiga xos poetik tasvir uslubidir. Bu jihatdan hikoya “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni syujetiga mos keladi. “Toshkelinchak” O‘rta Osiyo xalqlari orasida qachonlardir bo‘lib o‘tgan muhabbat rivoyati haqidadir. Adib bu rivoyatning yoyilib ketishini ham asarda chiroyli chizgilar bilan beradi. Nazarning qishloq chetidagi ziyoratgoh sanalgan qadim tosh ustida o‘z xayollari bilan band bo‘lib kun o‘tkazishini ta’riflar ekan: “Ziyoratgoh yonidan katta yo‘l o‘tgan, bir yog‘i O‘shdan Ergashtomga, bu yog‘i Qamchiq dovoni oralab, Toshkentdan Qozog‘istonning bepoyon cho‘llariga qarab ketadi. Turli-tuman uzun-qisqa arobalar qatnovi bir zum bo‘lsin tinmaydi”³¹, – deydi. Ushbu jumladan anglash mumkinki, “Toshkelinchak” hikoyasi eski rivoyatning badiiy talqini sifatida yozma adabiyotga olib kirilgan.

Isajon Sulton hikoyalarida xalq og‘zaki ijodining bir necha janrlarining uyg‘un namoyon bo‘lishi kuzatiladi. “Yusuf va Zulayho” hikoyasida shu nomdagi qadim sevgi afsonasiga murojaat qilsa, Zulayho qalbidagi iztiroblarni ko‘rsatishda alladan foydalanadi.

Aytish mumkinki, folklor Isajon Sultonga o‘z yo‘li, uslubi, o‘zligi va o‘q ildizini topishga yordam bergan.

“Hikoyada folklorga xos motiv va obraz talqini” deb nomlangan ikkinchi faslda avvalo motiv tushunchasiga to‘xtalangan. Adabiyotshunoslikda motiv haqida turli xil qarashlar ilgari surilgan. Jumladan B.Putilov “Motiv syujetning mag‘zidir” degan ta’rifni bersa³², taniqli rus olimi A.N. Veselovskiy “Motivlar birlashib, syujet xalqasini yuzaga keltiradi”, – deydi. D.Quronov va boshqalar tomonidan tuzilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”ida motiv syujet sxemasi yoki biron bir narsa, obraz kabi ko‘rinishlarda voqe bo‘lishi, badiiy asarlarda mavjud motivlar aynan emas, o‘zagi saqlab qolingani holda yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati va ijodiy niyatidan kelib chiqib, turli variantlarda talqin etilishi aytiladi”³³. I.M.Dyakonovga ko‘ra “mifologema mif syujetining asosiy mohiyatini belgilovchi detallar silsilasi bo‘lib, folklor asarlari badiiy qurilishida syujetni tashkil etuvchi epik obraz va motiv sifatida ishtirok etadi”³⁴.

Isajon Sultonning “Manzil”, “Xazinabon”, “Avliyo”, “Shamolli kecha” hikoyalarida sinov, safar, xatar, o‘lim, tush, xotirlash, ziyorat, o‘gay ona va o‘gay bolalar kabi motivlar mavjud.

“Xalq og‘zaki ijodida safar motivi eng ko‘p tarqalgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki aksariyat sehrli ertak va doston qahramonlari turli maqsad (yoki

³¹ Исажон Султон. Ташкелинчак // Асарлар. Ҳикоялар. I жилд. - Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.387

³² Путилов Б. Мотив как сюжетобразующей элемент // Типологическое исследование по фольклору. – Москва: Наука, 1975. –С.142.

³³ Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.180.

³⁴ Дьяконов И.М. Архаические мифы Востока и Запада. – Москва, 1990. – С.191.

sabab) bilan safarga o'tlanadilar: Alpomish Barchinni keltirish uchun, Kuntug'mish Holbekani izlab, kenja shahzoda Bulbuligo' yoni tutib kelmoq qasdida, Husanboy Oyparidan tushining ta'birini so'ragani, Olmos botir vazirning qutqulari tufayli va h. Hayotiy-maishiy ertaklarda qahramon savdo yoki dunyoni ko'rish maqsadlari bilan safarga chiqadi-da, shu safar davomida boshqa sarguzashtlarni boshdan kechiradi"³⁵.

Isajon Sultonning "Manzil" hikoyasida safar motivi yaqqol namoyon bo'ladi. "Manzil" hikoyasidagi qahramonlar: katta og'a, hikoya qiluvchi roviy, Muslim, Muhammad va Abdullalar uzoq manzilni ko'zlab yo'lga chiqishadi, maqsadlari o'zlariga tegishli xazinani topish. Manzil sari ketishar ekan, xuddi xalq ertak va dostonlaridagi kabi hikoya qahramonlari ham tog'lar, vohalar, sahrolarni bosib o'tishadi. Safarga chiqqan ko'plab hamrohlar Ko'hiqof tog'iga ham yetib kelishadi. Ko'pchiligi shu yerlarda qolib ketishadi. Hikoyaning asosiy qahramonlari besh og'a-inigina manzilga, Tilsim tog'iga, yetib borishadi. Hikoyada tog' kulti bilan bog'liq mifologik qarashlarning transformatsiyasi kuzatiladi. Xuddi folklor janrlaridagi kabi mazkur hikoyada ham tog' "inson oyog'i yetmaydigan, faqat tanlangan shaxslar yoki mifologik personajlar yordamida borish mumkin bo'lgan epik makon"³⁶ sifatida talqin qilinadi. Hikoyada inson umrining qisqaligi, ushalmagan, bajarilmagan yumushlarning, g'oyalarning amaliy ifodasi avlodlar tomonidan bajarilishiga ramziy ishoralar beriladi. Chunki hikoya so'nggida faqat eng kichik uka Abdullagina ortga qaytadi. Hikoyada Polbos nomli jinning o'z sohibiga sodiq xizmat qilishi, sehri qobiliyati va unga qahramonlarning duch kelishi qadimgi demonologik qarashlar asosida kelib chiqqan mifologik motivlarning transformatsiyasidir. Yozuvchi mifologik motiv transformatsiyasidan asar badiiy g'oyasini ochish, asar syujetini shakllantirishda ustalik bilan foydalangan. "Manzil" boshdan oyoq ramz asosiga qurilgan. Bunda safar go'yo inson umri. Yo'lda uchragan gulzor-u cho'llar uning shodlig-u g'amiga o'xshaydi. Manzil-orzulardan bino etilgan bino-sarob. Hikoyani o'qib bitirganimizdan so'ng o'zimizda qolgan xulosani quyidagicha sharhlash mumkin: "Ey dil, o'tayotgan har bir lahzadan o'zligingga, o'zligingdan esa har bir lahzangga nazar sol. Sen chir aylanib qidirayotganing, aytaylik, tilsim tog'i, ajab emaski, shu oraliqdan topilsa!"³⁷.

Yozuvchinning "Avliyo", "Otanga nimadir bo'ldi", "Turmush", "Qismat" kabi bir qator hikoyalarida tush motivi yetakchilik qiladi. O'zbek folklorida tush motivini alohida tadqiq qilgan olim Jabbor Eshonqul tushlarning asar strukturasi tutgan o'rniga qarab ikki guruhga ajratadi: "1) syujet o'zagini tashkil etuvchi namunalar; 2) syujetning ma'lum halqalarini bog'lovchi namunalar"³⁸. Isajon Sulton hikoyalarida esa tush motivi syujetning ma'lum halqalarini bog'lovchi vosita

³⁵ Куронов Д. "Ўткан кунлар": мифопоэтик таҳлил тажрибаси // Жаҳон адабиёти. – 2015. – №4. – Б. 10-16.

³⁶ Эшанова З. Ўзбек халқ достонларида тоғ образи: генезиси ва бадий талқинлари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Тошкент, 2018. – Б.18.

³⁷ Улуғбек Ҳамдам. Ойдинбулоқ ойдинлиги / Исажон Султон насри бадийати. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2017. – Б. 149.

³⁸ Эшонкул Ж. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан. – Б. 74.

